



TA'LIM SIFATINI BAHOLASH: UMUMIY O'RTA TA'LIM TASHKILOTLARIDA DIAGNOSTIKA USULLARI

Mamayusupova Muattar Qosimjonovna

Namangan davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya:

Mazkur maqolada umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifatini baholash jarayoni va diagnostika usullari tahlil qilingan. Baholashning asosiy maqsadlari, qo'llaniladigan usullar, ularning afzalliklari va amaliyotga tadbiq etish yo'llari yoritilgan. Shuningdek, diagnostika jarayonidagi muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim sifati, diagnostika usullari, o'quv jarayoni, baholash tizimi, o'quvchilar bilimlari, o'qituvchilar malakasi, innovatsion yondashuvlar.

ОЦЕНКА КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ: ДИАГНОСТИЧЕСКИЕ МЕТОДЫ В ОРГАНИЗАЦИЯХ ОБЩЕГО СРЕДНЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

Мамаюсупова Муаттар Касимжоновна

Преподаватель Наманганского государственного педагогического института

Аннотация:

В данной статье анализируется процесс оценки качества образования и методы диагностики в общеобразовательных школах. Рассмотрены основные цели оценки, применяемые методы, их преимущества и пути внедрения в практику. Также обсуждаются проблемы диагностики и предложены рекомендации по их устранению.

Ключевые слова: качество образования, методы диагностики, учебный процесс, система оценки, знания учащихся, квалификация учителей, инновационные подходы.



EVALUATION OF EDUCATION QUALITY: DIAGNOSTIC METHODS IN GENERAL SECONDARY EDUCATION INSTITUTIONS

Mamayusupova Muattar Qosimjonovna

Teacher of Namangan State Pedagogical Institute

Annotation:

This article analyzes the process of assessing education quality and diagnostic methods in general secondary education institutions. The main objectives of assessment, applied methods, their advantages, and practical implementation approaches are discussed. Additionally, challenges in the diagnostic process and recommendations for overcoming them are provided.

Keywords: education quality, diagnostic methods, learning process, assessment system, students' knowledge, teachers' qualification, innovative approaches.

Kirish

Mazkur maqolada umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida diagnostika jarayonining dolzarbligi, baholash usullari, amaliyotga tadbiq etish yo'llari hamda bu jarayonda uchraydigan muammolar yoritiladi.

Ta'lim sifatini baholash — ta'lim tizimining samaradorligini o'lchash, o'quvchilarning bilim darajasini aniqlash, ta'lim jarayonida yuzaga keladigan muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish uchun amalga oshiriladigan ilmiy, metodologik va amaliy jarayondir. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini baholash va diagnostika qilish, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini o'lchash, ta'lim tizimidagi kamchiliklarni aniqlash va ta'limni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilashda katta ahamiyatga ega.

Ta'lim sifatini baholash jarayonida foydalaniladigan diagnostika usullari turli metodologiyalarni o'z ichiga oladi, ular yordamida ta'lim tizimining holatini aniq tahlil qilish mumkin. Quyida umumiy o'rta ta'lim muassasalarida qo'llaniladigan asosiy diagnostika usullari keltirilgan.

Ta'lim sifatini oshirish uchun uning holati va rivojlanish tendentsiyalarini uzluksiz monitoringini olib borish va o'quvchilarning o'quv yutuqlarini ob'ektiv va adekvat

baholashni amalga oshirish zarur. Bu ayniqsa, o'quvchilarning keyingi shaxsiy va fuqarolik rivojlanishi uchun zamin yaratadigan umumiy o'rta ta'lim darajasida muhim ahamiyatga ega. [1.359-b]


Ta'lim sifatini baholash – bu o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash, o'qituvchilarning pedagogik faoliyatini o'lchash va ta'lim jarayonining samaradorligini kuzatish tizimidir. Bu jarayonning asosiy dolzarbligi quyidagilardan iborat:

✚ Maqsadga yo'naltirilgan ta'lim: Baholash orqali ta'lim jarayonida belgilangan maqsadlarga erishilganlik darajasini aniqlash mumkin.

✚ Tashqi muvofiqlik: Ta'lim tashkilotining milliy va xalqaro standartlarga mosligini kuzatish.

✚ Doimiy rivojlanish: Diagnostika natijalari ta'lim jarayonini uzluksiz takomillashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

O'quvchilar faoliyatini baholash quyidagi rasmda o'z ifodasini topgan.



1-pasm. **O'quvchilarning bilim darajasini aniqlash**

Formativ baholash o'quvchining o'zlashtirilgan bilim darajasini oshirish uchun samarador bir vosita sifatida ishlatiladi. Formativ baholashda o'qituvchi o'quv jarayonida o'quvchilar bilim darajasini oshirish uchun ma'lumotlarni, ko'nikmalarni va tushunchalarni aralashtiradi. Uning asosiy vazifasi o'quvchilarning o'zlarini baholashlarini, qiziqtirishlarini va muammolarini aniqlash va ularni yaxshilash



yo'llarini topishdir. Formativ baholash o'quvchilarning o'z fikrlarini ifoda qilishlariga imkon beradi va ularni o'zlashtirilgan bilimlarni o'sishiga odatiy fikr-mulohazalar va qarorlar olishga o'rgatadi. Formativ baholashning bir necha asosiy usullari mavjud. Misol uchun, o'qituvchi o'quvchilarga o'qish, yozish, fikrlash va muhokama qilish jarayonida bog'liq savollarga javoblar berishni talab qilishi mumkin. O'quvchilarning yozma yoki amaliy ishlari, vazifalari va proyektlarini baholash ham formativ baholashning bir qismi hisoblanadi. O'quvchilar o'zlarining ishlarini takomillashtirish uchun o'qituvchi yordamida maqsadga mos keladigan maslahatlar, taqrizlar va qo'llanmalar olishadi. Formativ baholashning bir turi ham o'quvchilarning o'zlarini baholashlari orqali o'quv natijalarini oshirishga yordam beradi. Bu usulda o'quvchilarga baholar beriladi va ular o'zlarining o'zlashtirilgan bilim darajasini tushunish uchun o'zlarining yutuqlarini, qo'llanishlarini va sohalarini mustahkamlashlari talab qilinadi.

Summativ baholashda odatda standartlashtirilgan testlar, yakuniy imtihonlar, loyihalar va portfellar kabi usullar ishlatiladi. Bu baholashlar ko'pincha baholanadi yoki ball qo'yiladi va o'quvchilar yoki sinflar kesimida taqqoslash imkonini beradi. Standartlashtirilgan testlar summativ baholashning muhim bir qismidir. Bu testlar o'quvchilarning o'zlashtirilgan bilim darajasini, bilimlarni tushunish darajasini va o'rganishning tushunchalarini baholashga yordam beradi. Standartlashtirilgan testlar o'quvchilarning umumiy bilim darajasini solishtirish va o'quvchilarni bilim darajasini taqqoslash imkonini beradi. Nazorat ishilar ham summativ baholashning muhim bir qismidir. Ushbu imtihonlar o'quvchilarning choraklik, yarim yillik yoki o'quv yili davomida o'zlashtirgan bilimlarini baholashga mo'ljallangan[2.51-b].

O'qituvchilar faoliyatini baholashda quyidagi diagnostika usullari qo'llaniladi:

Dars kuzatuv: Pedagogning darsda ishlatgan metodikasi, o'quvchilar bilan munosabati va jarayonni boshqarish qobiliyati tahlil qilinadi.

So'rovnomalar: O'quvchilar va ota-onalardan o'qituvchining faoliyati haqida fikr olish diagnostika jarayonining muhim qismidir.

Portfoliolar: O'qituvchi tomonidan amalga oshirilgan ishlarning hujjatlashtirilgan namunalarini o'rganish.



Ta'lim tashkilotining umumiy faoliyatini baholash:

Raqamli tahlillar: Ta'lim tashkilotining o'quv natijalari, dars jadvali va boshqa ma'lumotlar asosida statistik tahlil o'tkazish.

Xalqaro va milliy reytinglar: Ta'lim tashkiloti faoliyatining xalqaro ko'rsatkichlarga mosligini kuzatish uchun reyting tizimlari qo'llaniladi.

Psixologik diagnostika: O'quvchilar va o'qituvchilarning psixologik holatini o'rganish ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish uchun muhimdir. Bu borada stress va qoniqish darajasini baholash, ijtimoiy moslashuv darajasini aniqlash usullari qo'llaniladi.

Diagnostika jarayonida innovatsion yondashuvlar

Ayni vaqtda, Respublika ijtimoiy hayotiga shiddatli tezlikda axborotlar oqimi kirib kelmoqda va keng ko'lamni qamrab olmoqda. Axborotlarni tezkor suratda qabul qilib olish, ularni taxlil etish, qayta ishlash, nazariy jihatdan umumlashtirish, xulosalash hamda bolaga etkazib berishni yo'lga qo'yish talim tizimi oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi

Elektron test tizimlari ta'lim sifatini baholashda muhim vosita hisoblanadi. Ular o'quvchilar bilimni tez va samarali baholash imkonini yaratadi. Elektron test tizimlari yordamida ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilim darajasini aniqlash, ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, o'quvchilarga shaxsiy fikr va qayta aloqa (feedback) taqdim etish, shuningdek, o'qituvchilarga o'z faoliyatlarini tahlil qilish imkonini beradi.

Elektron test tizimlari yordamida o'quvchilarning javoblari avtomatik ravishda baholanadi, bu esa inson xatoliklarini kamaytiradi va vaqtni tejash imkonini beradi. Testni topshirganidan so'ng, o'quvchilar natijalarini darhol bilib olishlari mumkin. Bu esa o'quvchilarga o'z muvaffaqiyatlarini tezda tahlil qilish va xatoliklarini tuzatish imkonini beradi.

Elektron test tizimlari o'quvchilarning natijalari haqida shaxsiy tahlil va tavsiyalar berish imkonini yaratadi. O'qituvchilar o'quvchilarning kuchli va zaif tomonlarini ko'rib, ta'lim jarayonini o'quvchining ehtiyojiga moslashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. O'quvchilar esa o'zlarini baholash va o'z bilim darajasini yaxshilash uchun qo'shimcha materiallar bilan ishlashlari mumkin.



International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from New York, USA

Website: econfseries.com

2nd February, 2025

Elektron test tizimlari, shuningdek, raqamli texnologiyalarni, multimediya materiallarini va interaktiv resurslarni qo'llash imkonini yaratadi. O'quvchilarga video, audio, rasm va grafikalar orqali savollarni taqdim etish mumkin, bu esa testlarni yanada qiziqarli va samarali qiladi. Interaktiv savollar yordamida o'quvchilar turli uslubda bilim olishlari mumkin.

Gamifikatsiya (o'yin elementlarini qo'llash): O'quv tajribalarida o'yin elementlarini qo'llash o'quvchilarning motivatsiyasi va faolligini oshirishi mumkin. Raqamli o'yinga asoslangan o'quv platformalari yoki o'quv o'yin simulyatsiyalari tushunchalarni mustahkamlash, muammolarni hal qilishni rag'batlantirish va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun ishlatilishi mumkin. Diagnostika jarayoniga o'yin shaklidagi testlar, vazifalar va topshiriqlarni kiritish orqali o'quvchilar motivatsiyasini oshirish mumkin.

Interaktiv baholash usullari: Interaktiv doskalar, virtual laboratoriyalar va boshqa vositalardan foydalanib, o'quvchilarning bilimini aniq va samarali baholash imkoniyati yaratiladi.

Diagnostika jarayonida uchraydigan muammolar

Texnologik resurslarning yetishmasligi: Diagnostika tizimini rivojlantirish uchun zamonaviy texnologiyalar va ularga mos infratuzilma zarur. Aksariyat maktablarda bu imkoniyat cheklangan.

Subyektivlik omili: Ta'lim sifatini baholashda o'qituvchilar va boshqa mutaxassislarning subyektiv qarashlari natijalarning adolatlilikiga ta'sir qilishi mumkin.

Mutaxassislarning yetishmasligi: Diagnostika tizimining samarali ishlashi uchun yuqori malakali pedagog va psixologlarning mavjudligi muhimdir.

Amaliyotga tadbiq etish bo'yicha tavsiyalar

Ta'lim tashkilotlari uchun yagona diagnostika standartlarini ishlab chiqish: Milliy diagnostika mezonlarini ishlab chiqish va ularni ta'lim tizimida tatbiq etish, har bir maktab uchun moslashtirilgan diagnostika dasturlarini yaratish.

Kadrlarning malakasini oshirish: Diagnostika usullarini qo'llash bo'yicha o'qituvchilar va boshqa xodimlar uchun trening va seminarlar tashkil etish.



International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from New York, USA

Website: econfseries.com

2nd February, 2025

Innovatsion texnologiyalarni joriy etish: Raqamli baholash vositalaridan foydalanishni kengaytirish, diagnostika jarayonini avtomatlashtirish uchun dasturiy ta'minotni rivojlantirish.

Davriy monitoring va hisobot tizimini yo'lga qo'yish: Ta'lim natijalarini doimiy ravishda kuzatish va ular asosida xulosalar chiqarish.

Xulosa. Ta'lim sifatini baholash va diagnostika jarayoni o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini aniqlashdan tashqari, ta'lim tizimining barcha bosqichlarida rivojlanishni ta'minlash uchun muhim omildir. Diagnostika orqali ta'lim jarayonidagi muammolar o'z vaqtida aniqlanib, ularni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Shu sababli, ta'lim tashkilotlarida diagnostika jarayonini takomillashtirish va innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. F.Abdullayeva "Maktabgacha ta'lim – maktab – oliy ta'lim" konf . Maqola.359-b
2. <https://www.uzbekscholar.com/> N.xusanova. "Summativ va formativ `baholash tizimi" Volume- 28, May – 2024.51-b
3. <https://buxdu.uz/ru/> M.M.Qosimjonovma. " Takomillashtirilgan texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish bilan ta'lim samaradorligini oshirish" PEDAGOGIK MAHORAT" ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2024, № 12
4. <https://interscience.uz/> Образование и инновационные исследования (2023 год № 12) axborot-ta'lim muhitida bakalavriat talabalari o'rtasida raqamli madaniyatni shakllantirishning nazariy asoslari Maxmudov A. Z.